



## 2020- yilning yanvar-avgust oylari uchun Jizzax viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Jizzax viloyatida jami **1 955,7** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **100,4 %** ni tashkil etdi.

### Qurilish ishlari hajmining tarkibi

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.


**Ma'lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.



**Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni (birlikda)**

		Holatiga ko'ra:		O'tgan yilga nisbatan, % da
		01.09.2019- yil	01.09.2020-yil	
	<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1750</b>	<b>1990</b>	<b>113,7</b>
	<b>Jizzax sh.</b>	<b>774</b>	<b>863</b>	<b>111,5</b>
	<b>tumanlar:</b>			
	<b>Arnasoy</b>	<b>53</b>	<b>54</b>	<b>101,9</b>
	<b>Baxmal</b>	<b>57</b>	<b>72</b>	<b>126,3</b>
	<b>G'allaorol</b>	<b>100</b>	<b>122</b>	<b>122,0</b>
	<b>Sh.Rashidov</b>	<b>308</b>	<b>354</b>	<b>114,9</b>
	<b>Do'stlik</b>	<b>45</b>	<b>58</b>	<b>128,9</b>
	<b>Zomin</b>	<b>113</b>	<b>118</b>	<b>104,4</b>
	<b>Zarbdor</b>	<b>74</b>	<b>93</b>	<b>125,7</b>
	<b>Zafarabod</b>	<b>18</b>	<b>25</b>	<b>138,9</b>
	<b>Mirzacho'l</b>	<b>37</b>	<b>47</b>	<b>127,0</b>
	<b>Paxtakor</b>	<b>69</b>	<b>76</b>	<b>110,1</b>
	<b>Forish</b>	<b>59</b>	<b>64</b>	<b>108,5</b>
	<b>Yangiobod</b>	<b>43</b>	<b>44</b>	<b>102,3</b>


## Jizzax viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari soni, 01.09.2020- yil holatiga ko'ra (ulushi, % da)



**Ma'lumot uchun:** viloyatda soni bo'yicha eng ko'p ulushga ega bo'lgan qurilish korxonalari Jizzax sh.(43,4 %), Sh.Rashidov (17,8 %) va G'allaorol (6,1 %) tumanlarida qayd etildi.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **85,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **256,6** % ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **2,7** % punktga ko'payib, **4,4** % ni tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi




**Ma'lumot uchun:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Jizzax shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **56,4** % i yoki 2019- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **367,7** %), Zafarobod tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **35,6** %), va Mirzacho'l tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **8,0** % i, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **86,7**%) ga to'g'ri keldi




### Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarini bajarilgan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **74,2 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-avgust oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,3 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **97,9 %** ni tashkil etgan holda **1 451,4** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.




Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **21,4 %** ni tashkil etdi yoki **418,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **96,7 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida  
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **46,4** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1 909,3** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,4 %** va **97,6 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi  
2020- yil yanvar-avgust

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 83,0 % i yoki **1 622,7** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

83,0 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **61,1** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 71,4 % ni tashkil etdi

71,4 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **1 451,4** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 77,6 % ni tashkil etdi.

77,6 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **418,7** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 21,4 % ni tashkil etdi.

21,4 %




**2020- yilning yanvar-avgust oylarida  
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	<b>Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>	<b>Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)</b>
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1 955,7</b>	<b>100,4</b>	<b>1 521,2</b>
Jizzax sh.	631,7	104,8	481,1
tumanlar:			
Arnasoy	26,4	99,7	19,9
Baxmal	67,8	102,0	50,7
G'allaorol	108,4	100,7	82,9
Sh.Rashidov	514,8	94,4	412,7
Do'stlik	47,1	99,0	36,8
Zomin	108,7	105,3	84,7
Zarbdor	83,3	100,4	65,2
Zafarobod	95,8	99,5	77,0
Mirzacho'l	31,7	107,5	23,8
Paxtakor	111,8	100,0	87,4
Forish	80,6	100,8	61,7
Yangiobod	47,6	99,8	37,3



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
qurilish ishlari

ulushi, % da



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




## Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **4,9 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,3 %** punktga ko'paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **2,4 %** punktga ko'payib, **69,4 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2019- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,2 %** punktga kamayib, **25,7 %** ni tashkil etdi.


*ulushi, % da*



**Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari**

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **3,5 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **1,1 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **96,0 %** (**2,1 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida hammasi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan bo'lib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **6,2 %** punktga ko'paydi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'ycha hududlar  
kesimida qurilish ishlari  
2020- yil yanvar-avgust oylarida**

*mlrd. so'm*


	Qurilish ishlari hajmi	Shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
<b>Jizzax viloyati</b>	<b>1955,7</b>	<b>1622,7</b>	<b>193,1</b>	<b>140,0</b>
Jizzax sh.	631,7	444,8	91,5	95,4
tumanlar:				
Arnasoy	26,4	26,4		
Baxmal	67,8	61,0	6,8	
G'allaorol	108,4	102,0	6,4	
Sh.Rashidov	514,8	454,3	36,8	23,7
Do'stlik	47,1	47,1		
Zomin	108,7	79,1	19,4	10,2
Zarbdor	83,3	83,3		
Zafarabod	95,8	95,8		
Mirzacho'l	31,7	11,6	9,4	10,7
Paxtakor	111,8	93,6	18,2	
Forish	80,6	75,9	4,7	
Yangiobod	47,6	47,6		

\*Hududlar bo'ycha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



## Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Sh.Rashidov tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 28,5 % i yoki **462,5** mlrd. so'm), shuningdek, Jizzax shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 27,4 % i yoki **443,8** mlrd. so'm), G'allaorol tumani ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 6,2 % i yoki **100,8** mlrd so'm), yuqori ulushga ega.



**JIZZAX VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

---

**Jizzax viloyati  
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi  
bo'limi**

**Aloqa telefoni: (72) 221-53-73**